


“TASDIQLAYMAN”

Namangan MYBX DM direktori
 J. Alimatov
21.05 2024 yil

Namangan MYBX DM ijro apparati xodimlari va boshqa muassasa xodimlar ishtirokida o‘tkazilgan umumiy yig‘ilish

B A Y O N I PP

Namangan shahri

“21” may 2024 yil

Yig‘ilish raisi:

Namangan MYBX DM direktori J. Alimatov

Qatnashdilar:

Muassasa ishchi-xodimlaridan 37 kishi.

K U N T A R T I B I :

O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida

Yig‘ilishni Namangan MYBX DM direktori J. Alimatov ochib, kun tartibdagi masalasi bilan yig‘ilish qatnashchilarni tanishtirib, so‘z navbatini Namangan MYBX DM bosh yuriskonsult R. Shamsutdinovaga berdi.

Bosh yuriskonsult R. Shamsutdinova o‘z so‘zida O‘zbekiston Respublikasi 2024 yil 27 fevral kungi O‘RQ-915-sonli, 2024 yil 2 aprel kungi O‘RQ-923-sonli, 2024 yil 15 mart kungi O‘RQ-921-sonli va boshqa qonunlari bilan ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilgan, ushbu o‘zgartirishlar bilan sizlarni tanishtirmoqchiman.

Xususan, 2024 yil 27 fevral kungi O‘RQ-915-sonli qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi 60-moddasi qo‘yidagi mazmunda to‘ldirilganligi Sud arizachining iltimosiga ko‘ra, davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatning ishtirok etishini ta‘minlash choralari ko‘rishi shartligi ko‘rsatilgan. Xuddi shu o‘zgartirish fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan, fuqarolik protsessual kodeksi 67-moddasi 4 va 5 qismlar bilan to‘ldirilgan. Shu bilan birga davlat hisobidan advokat yordamidan foydalanish huquqi O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 297-moddasining uchinchi va to‘rtinchi qismlarda va jinoyat protsessual kodeksida ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari, jazoni va jinoyat-huquqiy ta‘sir ko‘rsatishning boshqa choralari ijro etuvchi muassasalar hamda organlarning vakolatli mansabdor shaxsi sudning hukmlari, ajrimlari va qarorlarini qayta ko‘rib chiqishda, shuningdek ularni ijro etish bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatning «Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ishtirok etishini davlat hisobidan yuridik yordam

olish huquqiga ega bo'lgan mahkumning iltimosiga ko'ra ta'minlash choralarini ko'rishi shartligi jinoyat-ijroiya kodeksining 10-moddasida ko'rsatilgan;

So'ng, 2024 yil 2 aprel kungi O'RQ-923-sonli qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 482-modda o'n ikkinchi va o'n uchinchi qismlar bilan to'ldirilib, «Hamkorlik shartnomalari»ga asosan «20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis» dasturiga kiritilgan tadbirkorlik sub'ektlariga yaratgan yangi ish o'rinlari soniga qarab quyidagi muddatlarda bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati beriladi hamda dasturiga kiritilgan tadbirkorlik sub'ektlari yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini 2025 yil 1 yanvarga qadar miqdorda pasaytirilgan soliq stavkalari bo'yicha to'lovni amalga oshiradi, o'z majburiyatlar tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan bajarilmagan taqdirda, ushbu moddaning qirq oltinchi qismida nazarda tutilgan soliq imtiyozlarining amal qilishi soliq imtiyozlarini qo'llashning butun davri uchun bekor qilinib, ushbu soliqlarni to'lashga doir majburiyatlar tiklanganligi;

2024 yil 15 mart kungi O'RQ-921-sonli qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi 185⁴-modda bilan to'ldirilib, unga ko'ra Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan, ya'ni uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi va agar u uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini o'z ixtiyori bilan topshirsa, ma'muriy javobgarlikdan ozod qilinganligi aks ettirilgan.

Namangan MYBX DM direktori J.Alimatov o'z so'zida barcha xodimlar qonun buzilish holatlarga, jinoyatlarga yo'l qo'ymasligi, o'z vazifalarini vijdonan bajarish lozimligi, tartib-intizomga qattiq rioya etishlari haqida tushuntirish berib yig'ilshi yakunladi.

Umumiy yig'ilish qatnashchilari o'zaro fikr almashuvlaridan so'ng,

Q A R O R Q I L I N D I:

1. Kun tartibdagi masalalari ma'lumot uchun qabul qilinsin;
2. Bosh yuriskonsulti R.SHamsutdinovaga: xodimlarning huquqiy madaniyatini va bilimlarini oshirish, jinoyat va huquqbuzarlik xarakatlariga yo'l qo'ymasligi, o'z vazifalarini vijdonan bajarilishi yuzasidan targ'ibot ishlar olib borilsin;
3. Ushbu umumiy yig'ilish bayoni qarorini bajarilishi ustidan nazoratni o'z zimmasida qoldiraman.

Bayonlashtiruvchi:

J.Maxmudov